

YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATCHISINING MA’NAVIY MAS’ULIYATI: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR

Xoliyarova Mahbuba Sottorovna

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi katta o‘qituvchisi.

Tel.(90) 995-28-84

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794470>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat xizmatchisining ma’naviy mas’uliyati tushunchasi, halollik, adolat, shaffoflik, vatanparvarlik va kasbiy etika tamoyillarining o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: davlat xizmati, ma’naviy mas’uliyat, kasbiy etika, halollik, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat boshqaruvi, Yangi O‘zbekiston, huquqiy davlat.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish, xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv modelini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. So‘nggi yillarda davlat xizmatini professional, ochiq va shaffof tizimga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga.

Biroq davlat boshqaruvida samaradorlik faqat tashkiliy yoki huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki inson omili - xususan, davlat xizmatchisining ma’naviy qiyofasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois davlat xizmatchisining ma’naviy mas’uliyati masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - davlat xizmatchisining ma’naviy mas’uliyati tushunchasini nazariy-huquqiy jihatdan asoslash, uning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda amaliy mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Ma’naviy mas’uliyat - shaxsning o‘z xatti-harakatlari va qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini anglagan holda, ichki axloqiy mezonlarga tayangan holda javob berish qobiliyatidir. U huquqiy javobgarlikdan farqli ravishda ichki e’tiqod, vijdon va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Falsafiy nuqtai nazardan mas’uliyat erkinlik bilan uzviy bog‘liq tushunchadir. Shaxs qanchalik erkin bo‘lsa, u shunchalik mas’uliyatlidir. Davlat xizmatchisi esa jamiyat nomidan qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida yuqori darajadagi mas’uliyatga egadir.

Davlat xizmati - bu davlat hokimiyati organlarida professional asosda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bunda xizmatchi o‘z vakolatlarini amalga oshirish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois davlat xizmatchisining faoliyatida quyidagi axloqiy mezonlar ustuvor bo‘lishi lozim: halollik, adolat, xolislik, inson qadr-qimmatiga hurmat, qonun ustuvorligiga sadoqat. Bu mezonlar davlat boshqaruvida ishonch muhitini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyati xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini belgilaydi. Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Bu norma davlat xizmatchisining faoliyatida ma’naviy mas’uliyatning konstitutsiyaviy asosini yaratadi [1].

2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlarini, odob-axloq qoidalarini hamda xizmat intizomini belgilab berdi [2]. Mazkur qonunda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanmaslik, odob-axloq qoidalariga rioya etish, shaffoflik va ochiqlik.

Bu talablar davlat xizmatchisining nafaqat huquqiy, balki ma’naviy mas’uliyatini ham belgilaydi hamda xizmatchisidan ochiqlik, xalqchilik, halollik va tashabbuskorlik talab etiladi. Bu xususiyatlar uning ijtimoiy faolligini oshirib, xalq va davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ hujjatlar davlat xizmatchilarining halollik tamoyiliga qat’iy rioya etishini talab qiladi [3]. Korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhiti — bu davlat xizmatchisining ma’naviy yetukligini taqozo etuvchi muhim omildir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun” g‘oyasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son). Bu tamoyil davlat xizmatchisining faoliyatida inson manfaatini ustuvor qo‘yishni talab etadi. “Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan konseptual yondashuv davlat boshqaruvida xizmat madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa ma’naviy mas’uliyatning amaliy ifodasidir.

Halollik davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, u insonning o‘z vazifasiga pok vijdon bilan yondashishini anglatadi. Davlat xizmatchisi moddiy manfaat yoki shaxsiy foyda uchun emas balki jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishlari lozim. Falsafada halollik insonning ichki ma’naviy pokligi sifatida talqin qilinadi. Agar davlat xizmatchisi halol bo‘lsa davlat boshqaruvida shaffoflik va ishonch muhiti shakllanadi. Aks holda korrupsiya va ijtimoiy adolatsizlik kuchayadi. Halollik insonning ma’naviy mustaqilligini nomoyon etib, u davlat xizmatchisining jamoatchilik oldidagi obro’sini belgilaydi. Halollik davlat va xalq o‘rtasida munosabatlarni mustahkamlagan uchun ham davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining muhim ma’naviy – axloqiy asosidir.

Falsafiy tahlilga ko‘ra, davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatdan ustun ravishda xalq manfaatiga xizmat qilishi uning ijtimoiy burch va ma’naviy mas’uliyatni anglash darajasi bilan belgilanadi. Chunki davlat xizmati mohiyatan individual foyda emas, balki umumiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir. Falsafada bunday yondashuv “umumiy manfaat ustuvorligi” tamoyili bilan izohlanadi, ya’ni inson o‘z shaxsiy ehtiyojlarini jamiyat ehtiyoji bilan muvofiqlashtirgandagina haqiqiy ma’naviy kamolotga erishadi. Masalan, davlat xizmatchisining qarindosh – urug‘chilik yoki tanish – bilishchilik asosida qaror qabul qilmasdan, qonun va adolat talabiga muvofiq ish yuritishi xalq manfaatiga xizmat qilishning amaliy ko‘rinishidir. Yoki tabiiy ofat, pandemiya kabi og‘ir sharoitlarda davlat xodimlarining o‘z shaxsiy xavfsizligi va manfaatini emas, aholi salomatligi va osoyishtaligini ustuvor qo‘yib fidokorona mehnat qilishi insonparvarlik va vatanparvarlikning yuksak namunasidir. Shu ma’noda, xalq manfaatini ustuvor qo‘yish davlat xizmatchisining faqat kasbiy vazifasi emas, balki uning ma’naviy – axloqiy yetukligini belgilaydigan falsafiy qadriyat hisoblanadi.

Davlat xizmati jamoatchilik mehnatining asosiy turi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi jamiyat a’zolarining maqsad va manfaatli, muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta’minlash, jamoatchilik fikrini yo‘naltirishdan iborat. Ushbu faoliyatning mohiyati shundaki, u aqliy yo‘naltirilgan xodimlarning rejali faoliyati bo‘lib, inson yaratuvchanligini tashkil etishga qaratilgandir. Davlat xizmati xodimining mentaliteti o‘ziga tegishli vakolatlarni amalga oshirish jarayonida yuz beradigan o‘zaro munosabatlar bilan belgilanadi. Mehnat faoliyatining ushbu turiga xos asosiy xususiyat shundaki, davlat xizmati xodimi tartib qoidalarga amal qilish bilan birga xodimlarga ta’sir ko‘rsatgan holda ma’naviy, axloqiy, madaniy va albatta mental iz qoldiradi [4]

Davlat xizmatchisi ma’naviy qiyofasining muhim tarkibiy elementlaridan biri madaniyat va muomala odobidir. Davlat xizmatchisi jamiyat bilan doimiy muloqotda bo‘lgani sababli uning muomala madaniyati katta ahamiyatga ega. Falsafada madaniyat insonning ma’naviy kamolot darajasini ifodalaydi. Davlat xizmatchisining muloqot uslubi davlatning ma’naviy qiyofasini aks ettiradi. Agar u fuqarolar bilan hurmat va sabr bilan munosabatda bo‘lsa, jamiyatda ijtimoiy ishonch mustahkamlanadi. Muomala madaniyati insonparvarlik tamoyillarini amaliy hayotda

namoyon etib, bu davlat xizmatchisining ma'naviy saviyasini ko'rsatadi. Zamonaviy davlat xizmatida kommunikatsiya madaniyati muhim mezonga aylanmoqda. Chunki axborotlashgan jamiyatda muloqot davlat va jamiyat munosabatlarining asosiy vositasi hisoblanar ekan, muomala madaniyati davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasining muhim elementidir.

Davlat organlarida qabul qilingan odob-axloq kodekslari xizmatchilarning kundalik faoliyatini tartibga soladi. Ular ma'naviy mas'uliyatni institutsional jihatdan mustahkamlaydi. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki davlat xizmatchisining mas'uliyatini oshiradi. Elektron hukumat tizimining rivojlanishi inson omilini qisqartirish orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi va ma'naviy mas'uliyatni mustahkamlaydi.

Muammo sifatida byurokratik to'siqlar, manfaatlar to'qnashuvi, mas'uliyatsizlik va loqaydlik va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirsak, yechim sifatida esa halollik standartlarini kuchaytirish, ochiq baholash tizimini joriy etish, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish taklif etiladi.

Yangi O'zbekistonda davlat xizmatchisining ma'naviy mas'uliyati — demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy shartlaridan biridir. Davlat xizmatchisi nafaqat qonun ijrochisi, balki jamiyat oldidagi axloqiy mas'ul shaxs sifatida namuna bo'lishi lozim. Ma'naviy yetuk, halol va professional davlat xizmatchilari davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlaydi hamda fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023-yilgi yangi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 – yil 14 – oktyabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob – axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida”gi 595 – son Qarori
3. O'zbekiston Respublikasining 2017 – yil 3 – yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ – 419 – son Qonuni
4. Абдурахманов К.Х., Одегов Ю.Г. Управление трудовым потенциалом в условиях регулируемой рыночной экономики. – Тошкент: «Меҳнат», 1991. – Б. 38.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 28 – yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF – 60 – son Farmoni
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
8. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
9. Falsafa: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Mas'ul muharrir A. Sher. – Toshkent, 2020.
10. Islomov Z.M. Davlat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2019.
11. Transparency International. Corruption Perceptions Index Reports. – 2022.